

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TUG'ILISH VA O'LIM TUSHUNCHALARINI IFODALOVCHI EVFEMIZMLARNING SEMANTIK TAHLILI

Po'latova Irodaxon Ilhomjon qizi

FarDU „Ingliz tili amaliy kursi“ kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qiyoslanayotgan tillarda xususan zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida tug'ilish va o'lim tushunchalarini ifodalovchi evfemizmlarni semantik jihatdan tizimli tadqiq etish uchun, dastlab "semantik maydon" tushunchasini tahlilga tortish zarur bo'ladi. Arvalo, tilshunoslikdagi "maydon" tushunchasiga to'xtalgan. Maydon va uning mohiyati bo'yicha tilshunoslikda turlicha fikrlar va qarashlar mavjud ekanligi aytib o'tilib, ularga ta'rif berilgan.*

Kalit so'zlar: *evfemizm, semantika, maydon, leksema, semema, sema, zamonaviy tilshunoslik.*

SEMANTIC ANALYSIS OF EUPHEMISMS EXPRESSING THE CONCEPTS OF BIRTH AND DEATH IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Pulatova Irodaxon Ilhomjon kizi

Teacher of the Department of "Practical English Course" of FarDU

Abstract: *In order to carry out a semantic systematic study of euphemisms expressing the concepts of birth and death in the languages being compared, in particular in modern English and Uzbek, it is necessary to first analyze the concept of "semantic field". First of all, the concept of "field" in linguistics is discussed. It is noted that there are different opinions and views in linguistics regarding the field and its essence, and they are defined.*

Keywords: *euphemism, semantics, field, lexeme, sememe, sema, modern linguistics.*

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭВФЕМИЗМОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ПОНЯТИЯ РОЖДЕНИЯ И СМЕРТИ В УЗБЕКИСТАНЕ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Пулатова Иродахон Илхомджан кизи

Преподаватель кафедры «Практический курс английского языка» ФарГУ

Абстрактный: *Для системного изучения семантики эвфемизмов, выражающих концепты рождения и смерти в сопоставляемых в данной статье языках, в частности в современных английском и узбекском, необходимо в первую очередь проанализировать понятие «семантическое поле». Прежде всего обсуждалось понятие «поле» в лингвистике. Отмечено, что в языкознании*

существуют различные мнения и взгляды относительно данной области и ее сущности, и дано их определение.

Ключевые слова: *эвфемизм, семантика, поле, лексема, семема, сема, современная лингвистика.*

KIRISH

Maydon tushunchasi aslida fizika sohasida paydo bo'lgan bo'lib, "fizik hodisa voqelanadigan yoki uning ta'siri paydo bo'ladigan fazo" sifatida izohlanadi.⁴¹ Tilshunoslik sohasida bo'lsa "maydon" tushunchasi butunlay farqlanadi va quyidagicha ifodalanadi. Maydon atamasi semantika bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, ular "semantik maydon" ko'rinishida ifodalanadi. Semantikaning eng muhim vazifasi bir-biri bilan ma'no jihatdan yaqin so'zlarni umumlashtirib berishdir. Ular esa o'z navbatida leksik-semantik guruh sifatida namoyon bo'ladi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Kasallikni ifodalovchi so'zlar: quvvatsizlik, isitma, ruhiy zo'riqish, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, immunitet pasayishi, shikoyat, shamollash, burun oqishi;
- O'lchov birliklarini ifodalovchi so'zlar: kilogramm(kg), gramm(gr), millimeter(mm), santimetr(sm), kilometr(km);

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

19-asrda M.M. Pokrovskiyning tadqiqotlarida maydonni tilshunoslik sohasida umumiy sememaga ega ekanligi, bir arxisema bilan birlashuvchi leksik birliklar majmui ko'rinishida tushunish mumkin ekanligi aytib o'tilingan.⁴² Semantika atamasi yunoncha sema so'zidan olingan bo'lib, til birliklarining mazmun qiymatini, ma'nosini tahlil qiladi.⁴³

So'zlarni semantik maydonlarga ajratishning yangi metodi 20- asrning 40-yillarida yuzaga kelgan bo'lib, bu qarash Praga maktabi tomonidan ilgari surilib, u differensial-semantik tahlil etish deb atala boshlandi. Dastlab semantik maydonlar mantiqiy-semantik jihatdan ajratilgan bo'lsa, bu metodga ko'ra lingvistik-semantik jihatdan maydonlarni tashkil etadi. Jahon tilshunosligida Ch.Pirs, F.de Sossyur va Ch. Morris semantik maydon sohasida ko'plab qarashlarni o'rganishgan. O'zbek tilshunoslik sohasida I. Qo'chqortoyev so'z va uning ma'no valentligi, Sh.Rahmatullayev, R.Yunusov, Ra'no Sayfullayevalar leksema, semema, semalar, R.Rasulovning holat fe'llari, Sh.M.Iskandarova otlardagi shaxs mikromaydoni,

⁴¹ Maydon Tushunchasi Va Turli Tizimli Tillarda "Ko'ngil" Leksik-Semantik Maydoni Tadqiqi Ahmedova Muyassarxon, Rahimova Yulduzxon (FarDu ingliz tili amaliy kursi kafedrası)

⁴² Maydon Tushunchasi Va Turli Tizimli Tillarda "Ko'ngil" Leksik-Semantik Maydoni Tadqiqi Ahmedova Muyassarxon, Rahimova Yulduzxon (FarDu ingliz tili amaliy kursi kafedrası)

⁴³ Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. 2002. A.Hojiyev

N.R.Nishonova “hayvon” arxisemali leksemalar maydoni borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borishgan.⁴⁴

«Semantik maydon» atamasi lingvistik jihatdan lingvistik birliklar to'plami, umumiy jihat bilan birlashgan turli ajralmas birliklarni ifodalashda qo'llaniladi. Rus olimi V.A. Litvinovning tadqiqotlariga ko'ra, bu kabi leksik birliklar ilk davrlarda so'zlar hisoblangan. Vaqtlar o'tishi bilan so'z birikmalari va iboralarni ham qamrab olgan. Rus tilshunosi L.M. Vasilev «Zamonaviy lingvistik semantika» kitobida semantik maydonning asosiy xususiyatlari haqida quyidagicha izoh keltirib o'tadi:

- Semantik maydon til tashuvchilari uchun tushunarli va psixologik haqiqat sifatida qabul qilinadi.

- Semantik maydon mustaqil til tizimi hisoblanadi.

- Semantik maydon birliklari turli submaydonlar bilan semantik munosabatlarga kirishadi.

- Har bir semantik maydon tilning boshqa semantik maydonlari bilan bog'liq holda til tizimini hosil qiladi.

- Semantik maydon gipersemadan iborat yadro va umumiy so'zlardan iborat periferiyadan tashkil topgan.⁴⁵

XULOSA

Evfemizm - keng tarqalgan til hodisasi va til muloqotida ajralmas yumshatish vositasi. Bu xushmuomalalikni ko'rsatadigan, ohangni yengillashtiradigan va shaxsiy munosabatlarni muvofiqlashtiradigan ifodadir. Ma'lum bo'lishicha, ko'plab ingliz va o'zbek evfemizmlari kundalik hayotda kontseptual metonimiya doirasida yaratilgan. Evfemizmlarni kognitiv metonimiya nuqtai nazaridan o'rganish til o'rganish, madaniyatlararo muloqot va evfemizmlarni tarjima qilishda o'zining ahamiyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maydon Tushunchasi va turli tizimli tillarda “Ko'ngil” Leksik-Semantik Maydoni Tadqiqi Ahmedova Muyassarxon, Rahimova Yulduzxon (FarDu ingliz tili amaliy kursi kafedrası)
2. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. 2002. A.Hojiyev
3. „SEMANTIK MAYDON VA SEMANTIK TO'R IMKONIYATLARI“, Xolmanova Zulxumor Turdiyevna E-mail: zulxumor-uzmu@mail.ru Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori (O'zbekiston)

⁴⁴ „SEMANTIK MAYDON VA SEMANTIK TO'R IMKONIYATLARI“, Xolmanova Zulxumor Turdiyevna E-mail: zulxumor-uzmu@mail.ru Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori (O'zbekiston)

⁴⁵ ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA SEMANTIK MAYDON TUSHUNCHASI VA UNING O'RGANILISHI. Axmedova Mehrinigor Bahodirovna, PhD, dotsent, Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası, BuxDU

4. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA SEMANTIK MAYDON
TUSHUNCHASI VA UNING O'RGANILISHI. Axmedova Mehrinigor Bahodirovna,
PhD, dotsent, Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası, BuxDU